

BODOM GULIDAGI TAQDIR

Nasiba Abduzairova

TDPU 2- bosqich talabasi

Mahbuba O'razbayeva

Ilmiy rahbar, TDPU dotsent v.b., f.f.f.d., PhD

Annontatsiya

ushbu maqolada O'tkir Hoshimovning "Baxt" hikoyasi tahlilga tortilgan. Tahlilga tortish jarayonida asarning obrazlar tizimi va g'oyasi o'rganildi.

Kalit so'zlar: baxt, inson kechinmalari, qahramonlar xarakteri, urf-odatlar, retrospektiv sujet.

O'tkir Hoshimov - XX asr ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotiga ko'plab nodir asarlarni tuhfa qilgan yuksak qalam sohibi, sermahsul ijodkor. "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", "Dunyoning ishlari" asarlaridagi bir qator chigal, murakkab taqdirlar orqali o'zbek xalqining ayanchli qismatini mahorat bilan ochib bera olgan yozuvchi. Biz bugun ushbu yetuk qalam sohibining "Baxt" hikoyasi haqida so'z yuritmoqchimiz. Adabiyot darsliklaridan ma'lumki, mavzular ikki xil bo'ladi: tarixiy va boqiy mavzular. Ijodkor boqiy mavzuga qo'l urib, ushbu sarlavhani tanlangan. Yoinki adibning bu mavzudagi asarlari doim o'z ixlosmandlariga ega bo'lib kelgan. Asardagi har bir so'z, o'xshatish, iboralarni uning umrboqiyligini ta'minlovchi marjonga qiyoslasak, ularning ichida eng a'lo donasi asar sarlavhasidir. Asar hikoya janrida yozilgan bo'lib, real voqealarga asoslangan.

Asarning tematik tasnifi mutloq hayotiy kishilar taqdiri ustiga qurilgan. Asar mavzusi ayrim kishilar ko'p ham qadriga yetavermaydigan, ba'zilar esa bir umr izlab ham topa olmaydigan tuyg'u, hilqat - baxt haqida. Asar yangi yil bayramining kirib kelishi bilan muqaddimalangan bo'lsa, o'ziga xos retrospektiv syujet asar o'qimishliligini taminlagan.

Munira yangi yil kuni o'zining o'tmish hayoti haqida eslaydi. Munira - juda ma'suliyatli, mehnatkash qiz. U otasini elas-elas xotirlaydi. Baland bo'yli,



mo'ylovli bu odamga tuzuk-quruq mehr qo'ymagan. Munira dadasi tashlab ketganda ham ortiqcha xunob bo'lmay, oltinchi sinfdan boshlab tikuvchilik, chok tikishni o'rgangan.

Mahoratli adib voqealar tizginini bayon etishda o'xshatish, badiiy bo'yoq dor iboralar zanjiri va qo'shiqlardan unumli foydalangan:

Oh urarman, oh urarman

Ohlarim tutgay sani.

Ko'zyoshim daryo bo'lib,

Baliqlar yutgay sani.

Bu she'r faqat badiiy poetik joziba uchun kiritilmagan balki, hokisor ona o'zining ne umidlar bilan bir yostiqqa bosh qo'yan turmush o'rtog'idan ro'shnolik ko'rmaganligini anglatadi. Uning qalbi shunchalik dardlarga to'laki, tinimsiz oh urmoqda. Shu qadar azob chekkanidan baliqlar uni yutishini istaydi go'yo. Ona mana shunday dardlar, alamli tug'yonlar qurshovida vafot etdi. Endi butun oilaning yuki Muniraning nozik yelkalari ustiga tushadi. O'zi va singlisining keyingi taqdiri uchun atelyeda ishlay boshlaydi.

O'tkir Hoshimov qahramonlar xarakteri yordamida konflekt yaratadi. Munira singlisi uchun hamma narsadan kechib, jon baxsh etgan bo'lsada, singlisi mutlaqo uning teskarisi, shunchalik bebosh bo'lib chiqdiki doim oxirini o'ylamay ish qiladi. Adib "shoshqaloq bodom" iborasi bilan ayni Sayyora xarakterini ochib bera olgan. Qalamkash bodomga o'xshab erta gullab, sal o'tmay xazoniga aylangan yaproqlar qismatini Sayyora xilidagi qizlar taqdiriga qiyoslaydi. Ahamiyatli jihat shundaki, ijodkor ushbu hikoyada singillar hayotiga befarq bo'limgan, ular uchun hamma narsadan hatto o'z baxtidan ham kechishga tayyor bo'lgan opalar obrazini gavdalantirgan. "Shoshgan qiz erga yolchimas" deganlaridek Sayyoraning turmushi bo'lmay qaytib keldi. Bu voqealar zanjiri orqali O'tkir Hoshimov turmushga yengil qarab o'ylamay ish qiladigan yoshlar taqdirini qalamga olgan.

Buni qaranki, ijodkor sayyoraning kelin bo'lib ketishida qanday sarpo suruvlar bilan ketishini tasvirlangan yozuvchi, shu o'rinda o'zbeklarga xos urf – odatlarga ham bir qadar nazar tashlab bularning hech biri baxtli hayot kechirish uchun kafil emasligiga ishora qilgan. Sayyora tabiatidagi andak mag'rurlik shoshqaloqlik bu voqeadan ham ko'pam ta'sirlanib o'tirishga yo'l qo'ymadi. O'zi o'qigan soha bo'yicha ishlay bo'shlaydi. Muniraga esa jajji ovunjoq topildi. Endi bu qizaloq bilan Munira



hayotidagi g'amini unutgandek bo'lди. Qalam sohibi hikoya yechimi sifatida qizaloq obrazini sayqallagan. Chindan bu qizaloq Muniraning barcha yo'qotganlari o'rnini bosuvchi beba ho hadya edi. Adib o'ziga xos yechimdan keyin personajlar Xatti-harakati orqali ajoyib prologni ham shakllantirgan.

Yangi yil bayramini detal qilib olib qahramonlar harakatini shu detal atrofida birlashtirgan:

“Qizaloq uyg'onib xonaga kirganda Archa chiroqlari yoqilgan edi.

-Xolajon qorbobo keldimi?

-Keldi. Senga ko'p sovg'alar olib keldi.

-Sizgachi xolajon ?

-Menga baxt sovg'a qildi.

-Nega meni uyg'o'tmadiyiz? Men boshqa narsa so'ramoqchi edim

-Yana nima so'ramoqchi eding?

-Baxt so'ramoqchi edim, keyin sizga bermoqchi edim. Sizda mana shuncha ko'p baxt bo'lardi xolajon!!!!.”

Yozuvchi tomonidan tanlangan ushbu suhbat hikoya butun bir mazmunini o'zida mujassamlashtirgan.

Mazkur hikoyada yangi yil detali asosiy g'oyani tashigan. Negaki kirib kelayotgan yangi yil toza qalbli kishilar uchun yangi baxtlar yangi orzular ro'yobi, quvonchlar shodasini olib kelishi kerak edi. Har bir asar ma'lum bir maqsad bilan yoziladi. Vaholanki, ushbu yozilgan asarlarning bir mushtarak jihatibor: ularning bari insoniy qalblar uchun yaratiladi. Tomoshabinlar yurak-yuragigacha kirib borgan, ularning sezimlariga ta'sir o'tkaza olgan har qanday asar kitobxonlar muhabbatini qozonishi shubxasiz.. O'tkir Hoshimov “Baxt” hikoyasi orqali tomoshabinlar qalbiga yanada yaqinroq kirib borgan desak aslo mubolag'a bo'lmaydi. Chunki u umid va harakatga undab yozilgan. Qaysiki inson sabr va muhabbat bilan baxtga intilsa, unga albatta yetadi. Zero, baxting katta kichigi bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'.Hoshimov – “Hikoyalar to'plami”. T:Sharq- 2000
2. D.Quronov – “ Adabiyotshunoslik lug'ati”. Toshkent: Akademnashr – 2010
3. D.Quronov – “ Adabiyot nazariyasi”.Toshkent: Navoiy universiteti – 2018
4. M.O'razbayeva – Badiiy tafakkurdagi yangilanish va ayol obrazi talqinidagi o'ziga xoslik. UzA elektron jurnali. 2022-yil 1-son.